

Surxondaryoda Saljuqiylar oltin dinori topildi



Surxondaryoda Saljuqiylar oltin dinori topildi

Termiz tumanining Do'stlik mahallasida yashovchi Ulkan Eraliev bog'ni sug'orish chog'ida yerdan sariq metall parchasini topib, Termiz arxeologiya muzeyiga murojaat qilgan.

Mutaxassislardan iborat guruh topilma aniqlangan joyda dastlabki ish jarayonini olib borib, Qoraxoniylar va Saljuqiylar davriga oid kulolchilik buyumlari parchalarini topgan.

U.Eraliev qimmatbaho topilmani Termiz arxeologiya muzeyiga topshirgan. Unga amaldagi qoidalarda belgilangan haq to'lab berilgan. Muzey mutaxassislari va numizmatlari tomonidan qimmatbaho topilma dastlabki ekspertizadan o'tkazilgan.

Mutaxassilarning aytishicha, oltin dinorning old Alloh va Muhammad so'zlari yozilgan. Tanganing orqa tomonidagi matn deyarli o'chib ketgan. Shikastlangan, lekin yaxshi

saqlanib qolgan tanga – oltin dinorning og'irligi 1,92 grammni tashkil qiladi.

Eslatib o'tamiz, musulmon mamlakatlarida tilla tangalar "dinor", kumush tangalar

“dirham” deb atalgan.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown

